O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHIDA EKOLOGIK SAMARADORLIK, FISKAL BARQARORLIK VA IJTIMOIY ADOLAT UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH

Qulliyev Ulug’bek – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Куллиев Улугбек – независимый исследователь Академии государственной политики и управления

Ulugbek Qulliyev – Independent Researcher at the Academy of Public Policy and Administration.

Annotatsiya. Mazkur tezisda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida fiskal siyosatning iqtisodiy va ekologik transformatsiyani ta’minlashdagi o‘rni tadqiq etiladi. Davlatning soliqlar, energetika tariflari, budjet xarajatlari va moliyalashtirish mexanizmlari orqali iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, 50 ta turli mamlakatlarning 1990–2021-yillardagi panel ma’lumotlari asosida uglerod narxlash mexanizmlarining aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan CO_2 emissiyalariga ta’sirini baholash natijalari hamda O‘zbekiston sharoitida yashil fiskal siyosatni takomillashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar tayyorlanadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, uglerod solig‘i, emissiyalar savdosi tizimi (ETS), energetika tariflari, yashil budjetlashtirish, yashil moliyalashtirish.

Аннотация. В тезисе исследуется роль фискальной политики в обеспечении экономической и экологической трансформации в процессе перехода к зелёной экономике. Рассматриваются возможности государства влиять на поведение экономических субъектов посредством налогов, энергетических тарифов, бюджетных расходов и механизмов финансирования.

На основе панельных данных 50 стран за 1990–2021 годы представлены результаты оценки влияния механизмов углеродного ценообразования на выбросы CO_2 в расчёте на душу населения, а также разработаны предложения по совершенствованию зелёной фискальной политики в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: зелёная экономика, углеродный налог, система торговли выбросами (ETS), энергетические тарифы, зелёное бюджетирование, зелёное финансирование.

Abstract. This paper examines the role of fiscal policy in promoting economic and environmental transformation during the transition to a green economy. It explores how governments can influence the behaviour of economic agents through taxes, energy tariffs, public expenditure, and financing mechanisms. Based on panel data from 50 countries covering the period 1990–2021, the paper presents the results of an assessment of the impact of carbon pricing mechanisms on per capita CO_2 emissions and develops proposals for improving green fiscal policy in Uzbekistan.

Keywords: green economy, carbon tax, emissions trading system (ETS), energy tariffs, green budgeting, green finance.

Kirish

Hozirda iqtisodiy rivojlanish faqat ishlab chiqarish hajmining o‘sishi yoki yalpi ichki mahsulotning oshishi bilan belgilanmayapti, balki iqtisodiy o‘sish qanday resurslar hisobiga ta’minlanayotgani, uning atrof-muhitga ta’siri va yaratilayotgan iqtisodiy farovonlikning jamiyat qatlamlari o‘rtasida qanday taqsimlanayotgani ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu rakursdan, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy rivojlanish modelini ekologik cheklovlar, uzoq muddatli barqarorlik va ijtimoiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishni bildiradi[1].

Iqlim o‘zgarishining iqtisodiy mohiyatini tushuntirishda Nicholas Sternning yondashuvi alohida ahamiyatga ega. Olim o‘z tadqiqotida iqlim o‘zgarishini nafaqat ekologik, balki global iqtisodiy xavf sifatida baholab, issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirish bo‘yicha bugun amalga oshiriladigan xarajatlar kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ancha katta iqtisodiy va ijtimoiy yo‘qotishlarning oldini olishga xizmat qilishini asoslagan.[1] Ushbu yondashuv yashil fiskal siyosatning iqtisodiy mazmunini ochib beradi: ekologik maqsadlarga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari va fiskal rag‘batlarni faqat joriy davr xarajati sifatida emas, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka kiritilgan investitsiya sifatida ham baholash lozim[2].

Mazkur jarayonning markazida davlatning iqtisodiy siyosati, xususan, davlat iqtisodiyotga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan eng muhim kanal – fiskal siyosat turadi. Chunki soliqlar, subsidiyalar, tariflar va davlat budjeti xarajatlari nafaqat moliyaviy resurslarni shakllantirish va taqsimlash vositalari, balki iqtisodiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilovchi rag‘batlantirish mexanizmlari ham hisoblanadi. Demak,

[1] Pigou, A. C. *The Economics of Welfare*. London: Macmillan and Co., 1920. https://oll.libertyfund.org/titles/pigou-the-economics-of-welfare
[2] Stern, N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. https://personal.lse.ac.uk/sternn/108nhs.pdf

yashil iqtisodiyotga o‘tish masalasini faqat yangi ekologik texnologiyalarni joriy etish yoki qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish doirasida ko‘rib chiqish yetarli deb qaralmaydi.

Tadqiqotning asosiy g‘oyasi va metodologik yondashuvi

Tadqiqotning asosiy g‘oyasi va maqsadi shundan iboratki, yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat moliyasining alohida yo‘nalishi emas, balki iqtisodiy boshqaruvning barcha mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladigan tizimli jarayondir. Bunda ekologik zarar iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida hisobga olinishi, davlat xarajatlarining ekologik natijadorligi baholanishi va yashil investitsiyalar uchun barqaror moliyaviy manbalar shakllantirilishi muhim sanaladi.

An’anaviy iqtisodiy yondashuvda ishlab chiqarish va iste’mol qarorlari, asosan, ularning xususiy xarajatlari va kutilayotgan daromadlari asosida qabul qilinadi. Biroq iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik zarar har doim ham mahsulot yoki xizmat narxida to‘liq aks etmaydi (buni biz bilvosita tashqi xarajatlar deb nomlaymiz). Natijada atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat iqtisodiy jihatdan nisbatan arzon ko‘rinishi, ekologik toza texnologiyalar esa yetarli rag‘batga ega bo‘lmasligi mumkin.

Uglerod solig‘i va emissiyalar savdosi tizimini tanlash masalasi Martin Weitzmanning “Prices vs. Quantities” nomli ilmiy ishida ilgari surilgan nazariy yondashuv bilan ham bog‘liq. Olim ekologik tartibga solishda narx mexanizmlarini belgilash va emissiyalar miqdorini cheklash o‘rtasidagi tanlovni tahlil qilib, ushbu ikki yondashuvning nisbiy samaradorligi xarajatlar va ekologik natijalar haqidagi noaniqlik xususiyatlariga bog‘liqligini ko‘rsatgan. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, uglerod solig‘i va ETSni barcha mamlakatlar uchun bir xil natija beradigan universal vositalar sifatida emas, balki mamlakatning iqtisodiy tuzilishi, emissiyalarni nazorat qilish

imkoniyatlari va institutsional sharoitlariga qarab tanlanadigan yoki o‘zaro uyg‘unlashtiriladigan mexanizmlar sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq[3].

Yashil fiskal siyosatning vazifasi iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olishni ta’minlashdan iborat. Masalan, uglerod solig‘i va emissiyalar savdosi tizimi (ETS) ifloslantiruvchi faoliyatning iqtisodiy xarajatlarini oshirish orqali korxonalarni energiya samaradorligini yaxshilash va kam uglerodli texnologiyalarga o‘tishga rag‘batlantiradi. Yashil budjetlashtirish esa davlat xarajatlarining iqlim va ekologik maqsadlarga muvofiqligini baholash imkonini beradi.

Demak, fiskal siyosatning mohiyati faqat budjet daromadlarini ko‘paytirishdan iborat emas. Uning strategik vazifasi iqtisodiy resurslar va iqtisodiy rag‘batlarni jamiyatning uzoq muddatli manfaatlariga mos yo‘naltirishdan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq.

GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING

Tadqiqot natijalari va ularning iqtisodiy mazmuni

Tadqiqot doirasida uglerod narxlash mexanizmlarining ekologik samaradorligi 50 ta mamlakatning 1990-2021-yillardagi panel ma’lumotlari asosida dinamik panel ekonometrik modellar yordamida baholandi. Tahlilda aholi jon boshiga CO_2 emissiyalari, uglerod solig‘i va ETS narxlari bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sish, urbanizatsiya, ishlab chiqarish tarkibi hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish manbalari kabi omillar hisobga olindi. Biroq, ushbu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘liq tushuntirilmaydi.

Baholash natijalariga ko‘ra, uglerod solig‘i yoki ETS narxining 1 tonna CO_2 uchun 10 AQSH dollariga oshishi aholi jon boshiga CO_2 emissiyalarini qisqa muddatda 0,8-1,0 foizga, uzoq muddatda esa 6,4-7,0 foizga kamaytirish bilan bog‘liq. Ushbu

[3] Weitzman, M. L. Prices vs. Quantities. The Review of Economic Studies, 1974, 41(4), 477–491. https://scispace.com/papers/prices-vs-quantities-33l3o6d1ky

natijalar uglerod narxlash mexanizmlarining ta’siri darhol to‘liq namoyon bo‘lmasligini, balki vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy subyektlarning texnologik va investitsion qarorlari o‘zgarishi orqali kuchayishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Uglerod narxlash mexanizmlari bo‘yicha xalqaro tahlillar ham ushbu instrumentlarning iqlim siyosatidagi o‘rnini baholashda muhim manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalarining ahamiyati shundaki, ekologik samaradorlikka faqat ma’muriy cheklovlar orqali emas, balki iqtisodiy rag‘batlarni o‘zgartirish orqali ham erishish mumkin. Agar ifloslantiruvchi faoliyatning iqtisodiy xarajatlari uning ekologik oqibatlarini hisobga olsa, korxonalar uchun energiya tejamkor uskunalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va kam uglerodli ishlab chiqarish texnologiyalariga investitsiya kiritishning iqtisodiy jozibadorligi ortadi[4].

Biroq ushbu natijalarni uglerod narxining har qanday sharoitda aynan bir xil samara berishining kafolati sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Ularning amaliy natijasi mamlakatning iqtisodiy tuzilishi, energetika tizimi, texnologik imkoniyatlari va institutsional sharoitlariga ham bog‘liq. Shu bois O‘zbekistonda uglerod narxlash mexanizmlarini joriy etish bosqichma-bosqichlik, iqtisodiy ta’sirni baholash va tegishli himoya mexanizmlarini shakllantirish tamoyillariga asoslanishi lozim.

O‘zbekiston sharoitida yashil fiskal siyosatni takomillashtirish

O‘zbekiston uchun yashil fiskal siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri energetika tariflarini iqtisodiy asoslangan darajaga bosqichma-bosqich yaqinlashtirishdir. O‘zbekistonda 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha belgilangan vazifalar ekologik maqsadlarni iqtisodiy islohotlar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.[5] Energiya resurslarining iqtisodiy qiymati va ularni yetkazib

[4] World Bank. *State and Trends of Carbon Pricing 2025*. Washington, DC: World Bank Group, 2025. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099052726140533053

berish xarajatlari tariflarda yetarli aks etmagan sharoitda ortiqcha iste'mol uchun rag‘bat saqlanib qolishi, davlat mablag‘larining esa energetika tizimini modernizatsiya qilish o‘rniga mavjud nomutanosibliklarni qoplashga yo‘naltirilishi mumkin[5].

Biroq tariflarni isloh qilishning maqsadi narxlarni oshirishning o‘zi emas. Asosiy maqsad energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, energetika infratuzilmasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va energiya samaradorligiga investitsiyalarni kengaytirishdan iborat. Shu bilan birga, kam ta'minlangan oilalarning manfaatlarini himoya qilish uchun bazaviy iste'mol me'yorlari, tabaqalashtirilgan tariflar va manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini uyg‘unlashtirish zarur. Bu yondashuv ekologik samaradorlik va ijtimoiy adolatni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymasdan, ularni yagona islohotning tarkibiy qismlari sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — yashil budjetlashtirishni rivojlantirish. Davlat budjeti xarajatlarini ekologik va iqlim maqsadlariga muvofiqligi bo‘yicha tasniflash, ularning natijalarini monitoring qilish hamda rejalashtirilgan xarajatlarni amalda erishilgan ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash davlat moliyasining natijadorligini oshiradi. Bunda mablag‘larning qancha qismi yashil loyihalarga ajratilgani bilangina cheklanmasdan, ushbu mablag‘lar qanday iqtisodiy va ekologik natija berganini ham baholash muhimdir.

Uchinchi yo‘nalish yashil moliyalashtirish manbalarini o‘zaro muvofiqlashtirishdan iborat. Tadqiqotda taklif etilgan integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish arxitekturasi milliy yashil taksonomiyani takomillashtirish, davlat,

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/6303230

xususiy va xalqaro moliyaviy resurslarni muvofiqlashtiruvchi Milliy yashil iqtisodiyot jamg‘armasini tashkil etish, yashil moliyaviy oqimlarni raqamli monitoring qilish hamda uglerod narxlash va milliy uglerod savdosi mexanizmlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi.

Ushbu mexanizmlarning o‘zaro integratsiyasi yashil loyihalarni tanlash, moliyalashtirish va ularning natijalarini baholashda yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada davlat mablag‘lari, xususiy investitsiyalar va xalqaro moliyaviy resurslarni bir-birini to‘ldiruvchi manbalar sifatida yo‘naltirish imkoniyati kengayadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotga o‘tishda fiskal siyosatni alohida instrumentlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan iqtisodiy boshqaruv tizimi sifatida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Uglerod narxlash mexanizmlari ekologik zararni iqtisodiy qarorlarda hisobga olishga, energetika tariflari resurslardan samarali foydalanishni rag‘batlantirishga, yashil budjetlashtirish davlat xarajatlarining ekologik natijadorligini baholashga, integratsiyalashgan yashil moliyalashtirish esa zarur investitsiyalarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning konseptual xulosasi shundan iboratki, yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy o‘sishdan voz kechishni emas, balki uning mazmuni va rag‘batlarini o‘zgartirishni talab qiladi. Davlat fiskal siyosat orqali ekologik zarar keltiruvchi faoliyatning iqtisodiy jozibadorligini kamaytirishi, resurslardan samarali foydalanish va yashil texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirishi mumkin. Biroq bunday islohotlarning barqarorligi ularning ijtimoiy adolat, shaffoflik va iqtisodiy imkoniyatlar bilan uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq.

Shunday qilib, O‘zbekistonda samarali yashil fiskal siyosatning asosiy mezoni faqat budjet daromadlarining ko‘payishi yoki ekologik ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi emas, balki iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik o‘rtasida uzoq muddatli muvozanatni ta’minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pigou, A. C. *The Economics of Welfare*. London: Macmillan and Co., 1920. https://oll.libertyfund.org/titles/pigou-the-economics-of-welfare.

2. Stern, N. *The Economics of Climate Change: The Stern Review*. Cambridge: Cambridge University Press, 2007. https://personal.lse.ac.uk/sternn/108nhs.pdf.

3. Weitzman, M. L. Prices vs. Quantities. *The Review of Economic Studies*, 1974, 41(4), 477–491. https://scispace.com/papers/prices-vs-quantities-33l3o6d1ky

4. World Bank. *State and Trends of Carbon Pricing 2025*. Washington, DC: World Bank Group, 2025. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099052726140533053.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/6303230.